FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11(1)-son

UDK: 159.9:37.015.3

Xudaynazarov Tursunali Alinazarovich,
O‘zbekiston Milliy universiteti “Psixologiya” kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SHAXS FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA RAG‘BATLANTIRISH VA JAZOLASH FENOMENLARINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs faoliyati samaradorligini ta’minlashda rag‘batlantirish va jazolash fenomenlarining psixologik determinantlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, talabalarning o‘quv faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi motivatsion, emotsional, ijtimoiy-psixologik va individual-psixologik omillar, rag‘batlantirish hamda jazolash mexanizmlarining xulq-atvorni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, E. Torndayk va B. F. Skinnerning bixevioristik qarashlari, mustahkamlash nazariyasi hamda zamonaviy pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan rag‘bat va jazoning ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil etilgan. Oliy ta’lim muassasalarida, xususan, psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan ishlashda rag‘batlantirish va jazolash vositalaridan pedagogik hamda psixologik jihatdan maqsadga muvofiq foydalanishning imkoniyatlari asoslab berilgan. Rag‘batlantirishning shaxsiy faollik, o‘ziga ishonch va ichki motivatsiyani rivojlantirishdagi ustuvorligi, jazolashning esa me’yoriy, adolatli va tarbiyaviy tamoyillarga asoslangan holda qo‘llanilishi zarurligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: shaxs, talaba, o‘quv faoliyati, faoliyat samaradorligi, rag‘batlantirish, jazolash, motivatsiya, psixologik determinant, mustahkamlash, xulq-atvor, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФЕНОМЕНОВ ПООЩРЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В статье теоретически анализируются психологические детерминанты феноменов поощрения и наказания в обеспечении эффективности деятельности личности. Особое внимание уделяется мотивационным, эмоциональным, социально-психологическим и индивидуально-психологическим факторам, влияющим на эффективность учебной деятельности студентов, а также роли механизмов поощрения и наказания в формировании поведения. Рассматриваются бихевиористские взгляды Э. Торндайка и Б. Ф. Скиннера, теория подкрепления и значение поощрения и наказания в образовательном процессе с позиции современной педагогической психологии. Обосновываются возможности целесообразного психолого-педагогического применения данных методов в работе со студентами высших образовательных учреждений, в частности обучающимися по направлению психологии. Подчёркивается приоритет поощрения в развитии личностной активности, уверенности в себе и внутренней мотивации, а также необходимость применения наказания на основе принципов соразмерности, справедливости и воспитательной направленности.

Ключевые слова: личность, студент, учебная деятельность, эффективность деятельности, поощрение, наказание, мотивация, психологическая детерминанта, подкрепление, поведение, образование и воспитание, социальная среда.

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF REWARD AND PUNISHMENT PHENOMENA IN ENSURING PERSONAL ACTIVITY EFFECTIVENESS

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the psychological determinants of reward and punishment phenomena in ensuring the effectiveness of personal activity. Particular attention is paid to motivational, emotional, socio-psychological and individual psychological factors influencing students' academic performance, as well as the role of reward and punishment mechanisms in shaping human behavior. The behaviorist approaches of E. Thorndike and B. F. Skinner, reinforcement theory and the significance of reward and punishment in the educational process are examined from the perspective of contemporary educational psychology. The article substantiates the possibilities of applying these methods appropriately in psychological and pedagogical work with university students, particularly those studying psychology. It emphasizes the priority of encouragement in developing personal activity, self-confidence and intrinsic motivation, while highlighting the necessity of applying punishment in accordance with the principles of proportionality, fairness and educational purpose.

Keywords: personality, student, learning activity, activity effectiveness, reward, punishment, motivation, psychological determinant, reinforcement, behavior, education, social environment.

KIRISH

Shaxs kamolotida uning individual-psixologik xususiyatlari, intellektual imkoniyatlari, emotsional holati, irodaviy sifatlari hamda ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar orasida ta’lim va tarbiya jarayoni alohida o‘rin tutadi. Chunki aynan ta’lim-tarbiya orqali shaxsning bilim, ko‘nikma va malakalari shakllanadi, ijtimoiy tajribasi boyiydi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi hamda faoliyat samaradorligini ta’minlovchi psixologik sifatlari takomillashadi.

Ta’lim tizimining rivojlanishi va uning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish har qanday jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o‘quv faoliyatini tashkil etish, talabalarni bilim olishga yo‘naltirish, ularning individual imkoniyatlarini hisobga olish va o‘zlashtirish darajasini muntazam takomillashtirib borish muhim pedagogik hamda psixologik ahamiyatga ega. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabaning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan munosabati, kasbiy shakllanishga intilishi va o‘z faoliyati natijalariga mas’uliyat bilan yondashishi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi.

Shaxs faoliyatini boshqarish va uning natijadorligini ta’minlashda rag‘batlantirish hamda jazolash mexanizmlari alohida o‘rin egallaydi. Mazkur fenomenlar inson xulq-atvorining shakllanishi, muayyan faoliyatga nisbatan munosabatning rivojlanishi, motivatsion jarayonlarning faollashuvi va mavjud xatti-harakatlarning mustahkamlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Biroq rag‘batlantirish va jazolashning

psixologik ta’siri bir xil emas. Ularning samaradorligi shaxsning individual xususiyatlari, faoliyat sharoiti, qo‘llash usuli, ijtimoiy muhit va mavjud motivatsion ehtiyojlarga bog‘liq.

Rag‘batlantirish, odatda, ijobiy xulq-atvor va faoliyat natijalarini e’tirof etish, qo‘llab-quvvatlash hamda mustahkamlash orqali namoyon bo‘ladi. Jazolash esa belgilangan talab va me’yorlarning buzilishiga nisbatan qo‘llaniladigan ta’sir chorasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, jazolashning noto‘g‘ri yoki haddan tashqari qo‘llanilishi shaxsda qo‘rquv, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va faoliyatdan qochish kabi salbiy psixologik holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Demak, mazkur vositalardan foydalanishda nafaqat erishilgan natija, balki shaxsning psixologik holati va keyingi rivojlanish istiqbollarini ham hisobga olish zarur.

Tadqiqotning dolzarbligi oliy ta’lim jarayonida talabalar o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish, ularning ichki motivatsiyasini rivojlantirish va mustaqil faoliyatga bo‘lgan mas’uliyatini kuchaytirishda rag‘batlantirish hamda jazolashning psixologik mexanizmlarini chuqur o‘rganish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi shaxs faoliyati samaradorligini ta’minlashda rag‘batlantirish va jazolash fenomenlarining psixologik determinantlarini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda oliy ta’lim tizimida ulardan foydalanishning psixologik-pedagogik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, rag‘batlantirish va jazolashning psixologik mohiyatini ochib berish, mazkur fenomenlarning xulq-atvor va motivatsiyaga ta’sirini o‘rganish, klassik psixologik nazariyalarni tahlil qilish hamda talabalarning o‘quv faoliyatida ularni qo‘llashning samarali shartlarini aniqlash tadqiqot vazifalari sifatida belgilandi.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Rag‘batlantirish va jazolash fenomenlarini ilmiy jihatdan o‘rganish psixologiya tarixida, ayniqsa, bixevioristik yo‘nalish shakllanishi bilan bog‘liq holda rivojlangan. Mazkur masala dastlab inson xulq-atvorining tashqi ta’sirlar bilan bog‘liq mexanizmlarini o‘rganish doirasida tadqiq etilgan. Keyinchalik esa rag‘batlantirish va jazolashning motivatsion, emotsional, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish bilan bog‘liq jihatlari ham ilmiy izlanishlar predmetiga aylangan.

Amerikalik psixolog E. Torndayk rag‘batlantirish va jazolash masalasini tizimli ravishda o‘rgangan dastlabki olimlardan biri hisoblanadi. Uning tomonidan ishlab chiqilgan ta’sir qonuni (Law of Effect) muayyan xatti-harakatdan keyin yuzaga keladigan natijaning shu xatti-harakatning kelgusida takrorlanish ehtimoliga ta’sirini tushuntiradi. Olimning fikricha, ijobiy natija bilan yakunlangan harakatlar mustahkamlanish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Ushbu yondashuv keyinchalik ta’lim jarayonida rag‘batlantirish mexanizmlarini qo‘llashning nazariy asoslaridan biriga aylandi.

B. F. Skinnerning operant shartlanish nazariyasi esa rag‘batlantirish va jazolash mexanizmlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. Olim xulq-atvorning

muayyan oqibatlar ta’sirida shakllanishi va mustahkamlanishini asoslab bergan. Uning qarashlariga ko‘ra, ijobiy mustahkamlash muayyan xatti-harakatning takrorlanish ehtimolini oshiradi, jazolash esa nomaqbul xatti-harakatning namoyon bo‘lishini kamaytirishi mumkin. Biroq bu ikki mexanizmning psixologik oqibatlari va uzoq muddatli ta’siri bir-biridan farq qiladi.

L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida shaxs taraqqiyoti ijtimoiy munosabatlar, ta’lim va hamkorlikdagi faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda izohlanadi. Mazkur yondashuv nuqtayi nazaridan, rag‘batlantirish faqat tashqi ta’sir vositasi emas, balki shaxsning o‘z imkoniyatlarini anglashiga, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishiga va mustaqil faoliyatga tayyorlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik omil sifatida ham namoyon bo‘ladi.

L. I. Bojovichning shaxs shakllanishi va motivatsion soha rivojlanishiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida ehtiyojlar, motivlar va shaxsning ichki intilishlari faoliyatning muhim psixologik asoslari sifatida talqin etiladi. Ushbu qarashlar rag‘batlantirish jarayonida shaxsning individual motivatsion xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

S. L. Rubinshteynning umumiy psixologiyaga oid qarashlarida faoliyat va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muhim metodologik tamoyil sifatida asoslangan. Shaxs faoliyat jarayonida shakllanadi va ayni vaqtda o‘z faoliyati orqali atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadi. Bu yondashuv rag‘batlantirish va jazolashni shaxs faoliyatining mazmuni, maqsadi va motivlari bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi.

Mahalliy psixologik va pedagogik adabiyotlarda ham ta’lim samaradorligi, shaxs motivatsiyasi, tarbiyaviy ta’sir mexanizmlari va o‘quv faoliyatini boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. E. G‘oziyev, V. M. Karimova, M. G. Davletshin, Z. T. Nishonova kabi olimlarning tadqiqotlarida shaxsning psixologik xususiyatlari, o‘quv motivlari, rivojlanish jarayonlari va ta’lim faoliyatining psixologik asoslari yoritilgan. O. Q. Tolipov, M. Usmonboyeva, J. G‘. Yo‘ldoshev va S. A. Usmonovlarning pedagogik texnologiyalarga oid tadqiqotlarida esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quv faoliyatini boshqarish va pedagogik ta’sir vositalaridan maqsadli foydalanish masalalari o‘z ifodasini topgan.

Mavjud ilmiy qarashlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, rag‘batlantirish va jazolashni faqat tashqi ta’sir mexanizmlari sifatida emas, balki shaxsning ichki motivatsiyasi, emotsional holati, ijtimoiy munosabatlari va individual xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liq murakkab psixologik hodisalar sifatida o‘rganish lozim.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo‘lib, shaxs faoliyati samaradorligini ta’minlashda rag‘batlantirish va jazolash fenomenlarining psixologik determinantlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotning metodologik asosini shaxs va faoliyat birligi tamoyili, rivojlanishning ijtimoiy shartlanganligi, motivatsion

yondashuv hamda xulq-atvorni mustahkamlashga oid psixologik nazariyalar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimli yondashuv va psixologik-pedagogik talqin metodlaridan foydalanildi. Xususan, E. Torndaykning ta’sir qonuni, B. F. Skinnerning operant shartlanish nazariyasi, L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvi, L. I. Bojovichning motivatsion qarashlari va S. L. Rubinshteynning faoliyat nazariyasi o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Rag‘batlantirish va jazolash fenomenlari quyidagi psixologik mezonlar asosida ko‘rib chiqildi: shaxsning motivatsion ehtiyojlari, individual-psixologik xususiyatlari, emotsional barqarorligi, o‘z-o‘zini baholash darajasi, ijtimoiy muhitning ta’siri hamda faoliyat natijalarini anglash imkoniyati.

Tahlilning asosiy yo‘nalishi ushbu fenomenlarning talabalar o‘quv faoliyatiga ta’sirini aniqlash, ularning ijobiy va salbiy psixologik oqibatlarini farqlash hamda oliy ta’lim sharoitida pedagogik jihatdan maqbul qo‘llash tamoyillarini asoslashdan iborat bo‘ldi.

NATIJALAR

O‘tkazilgan nazariy tahlil natijasida rag‘batlantirish va jazolash shaxs faoliyati samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim psixologik determinantlar ekanligi aniqlandi. Ularning ta’siri, avvalo, shaxsning faoliyatga bo‘lgan munosabati, motivatsion yo‘nalishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi va erishilgan natijalardan qoniqish darajasi bilan belgilanadi.

Rag‘batlantirishning psixologik mohiyati shaxs tomonidan amalga oshirilgan ijobiy faoliyatni e’tirof etish, uning natijalarini qadrlash va kelgusidagi faolligini qo‘llab-quvvatlashda namoyon bo‘ladi. Rag‘batning mazmuni faqat moddiy mukofot yoki tashqi imtiyozlar bilan cheklanmaydi. O‘qituvchining samimiy e’tirofi, talabaning yutuqlarini xolis baholash, uning fikrini tinglash, mustaqil qarorlarini qo‘llab-quvvatlash va erishilgan natijalarni e’tirof etish ham muhim rag‘batlantiruvchi vositalar hisoblanadi.

Rag‘batlantirishning ta’sirchanligi bir necha psixologik mexanizmlar bilan izohlanadi. Birinchidan, u shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ikkinchidan, faoliyat natijalariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Uchinchidan, muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini faollashtiradi. To‘rtinchidan, mustaqil faoliyat va tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Shu jihatdan rag‘batlantirish talabalarning nafaqat o‘quv natijalariga, balki kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Jazolash esa belgilangan xulq-atvor me’yorlari va faoliyat talablarining buzilishiga nisbatan qo‘llaniladigan ta’sir vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asosiy vazifasi nomaqbul xatti-harakatlarning oldini olish, mas’uliyat hissini rivojlantirish va ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishga yo‘naltirishdan iborat. Biroq

jazolashning samaradorligi uning qanchalik keskinligiga emas, balki asoslanganligi, adolatliligi va tarbiyaviy maqsadga muvofiqligiga bog‘liq.

Psixologik nuqtayi nazardan jazolash ikki xil natijaga olib kelishi mumkin. Bir tomondan, u nomaqbul xatti-harakatni vaqtincha cheklashi va shaxsning o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ikkinchi tomondan, haddan tashqari qattiq yoki adolatsiz jazo qo‘llanilishi xavotir, qo‘rquv, norozilik, o‘ziga ishonchsizlik va ta’lim jarayonidan uzoqlashish kabi salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud. Shu sababli jazolash shaxsning qadr-qimmatini kamsitmasligi, uning xatti-harakatiga qaratilishi va tuzatish imkoniyatini nazarda tutishi lozim.

Nazariy tahlil davomida rag‘batlantirish va jazolashning ta’sirini belgilovchi quyidagi asosiy psixologik determinantlar ajratildi:

Motivatsion determinant. Shaxsning faoliyatga kirishishi va uni davom ettirishi uning ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsadlari hamda muvaffaqiyatga erishish istagi bilan bog‘liq. Ichki motivatsiyaga tayangan talaba o‘zlashtirish jarayonida mustaqil izlanishga ko‘proq moyil bo‘ladi. Shu bois rag‘batlantirish tashqi mukofot bilan cheklanmasdan, bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojni ham rivojlantirishi kerak.

Emotsional determinant. Rag‘bat va jazo shaxsning hissiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy e’tirof quvonch, mamnunlik va o‘ziga ishonchni kuchaytirishi mumkin. Aksincha, kamsitish yoki adolatsiz jazolash salbiy emotsional kechinmalarni kuchaytiradi. Ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhitni yaratish rag‘batlantirish samaradorligini oshiradi.

Individual-psixologik determinant. Talabalarning temperamenti, xarakteri, qobiliyati, o‘z-o‘zini baholashi va psixologik sezgirligi turlicha bo‘ladi. Bir talabaga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan rag‘batlantirish usuli boshqa talabada xuddi shunday natijani bermasligi mumkin. Demak, ta’sir vositalarini tanlashda individual xususiyatlarni hisobga olish muhimdir.

Ijtimoiy-psixologik determinant. Oila, ta’lim muassasasi, tengdoshlar jamoasi va o‘qituvchi bilan munosabatlar rag‘batlantirish hamda jazolashning ta’sir doirasini belgilaydi. Talabaning jamoada e’tirof etilishi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi va adolatli munosabatga duch kelishi uning faoliyat samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kognitiv determinant. Talabaning o‘z faoliyati natijalarini anglash, xatolarini tahlil qilish, o‘z imkoniyatlarini baholash va keyingi harakatlarini rejalashtirish qobiliyati rag‘batlantirish va jazolashning tarbiyaviy samaradorligini belgilaydi. Bunda xatoni shaxsiy kamchilik sifatida emas, balki rivojlanish uchun zarur tajriba sifatida qabul qilish muhim hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida, xususan, psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan ishlashda ushbu determinantlarni hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bo‘lajak psixologlar inson xulq-atvori, motivatsiyasi, emotsional holati va shaxslararo munosabatlarning qonuniyatlarini nazariy jihatdan o‘zlashtirish bilan birga, ularni amaliy faoliyatda ham anglay olishlari lozim.

Shu nuqtayi nazardan, talabalarning ilmiy izlanishlari, mustaqil ta’limi, amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi, jamoaviy loyihalardagi ishtiroki va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rag‘batlantirish vositalaridan maqsadli foydalanish samarali yondashuv hisoblanadi.

MUHOKAMA

Rag‘batlantirish va jazolash fenomenlarini psixologik jihatdan tahlil qilish ularning inson faoliyatiga ta’siri bir tomonlama emasligini ko‘rsatadi. Bixevioristik nazariyalarda ushbu mexanizmlar, asosan, xulq-atvorni shakllantirish va mustahkamlash vositalari sifatida talqin qilingan bo‘lsa, zamonaviy psixologik yondashuvlarda shaxsning ichki motivatsiyasi, individual xususiyatlari va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

E. Torndaykning ta’sir qonuni va B. F. Skinnerning operant shartlanish nazariyasi rag‘batlantirish mexanizmlarini tushunishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq mazkur nazariyalarni oliy ta’lim amaliyotiga bevosita ko‘chirish yetarli emas. Chunki talaba faoliyati faqat tashqi ta’sirlarga javob berishdan iborat bo‘lmay, unda anglangan maqsadlar, kasbiy qiziqishlar, mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari ham muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim jarayonida rag‘batlantirishning ustuvorligi uning talabaning ichki imkoniyatlarini faollashtirish xususiyati bilan izohlanadi. Masalan, talabaning mustaqil izlanishi, murakkab topshiriqni bajarishga intilishi yoki o‘z xatosini anglab, uni bartaraf etishga harakat qilishi o‘z vaqtida e’tirof etilsa, unda faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Bunda rag‘bat faqat yakuniy natijaga emas, balki faoliyat jarayonidagi intilish, mas’uliyat va shaxsiy rivojlanishga ham qaratilishi kerak.

Jazolash masalasida esa uning pedagogik va psixologik chegaralarini aniq belgilash muhimdir. Ta’lim jarayonida jazolashning asosiy vazifasi talabani qo‘rqitish yoki uning shaxsiy qadr-qimmatini pasaytirish emas, balki nomaqbul xatti-harakat sabablarini anglatish, mas’uliyatni shakllantirish va xatoni tuzatish imkoniyatini yaratishdan iborat bo‘lishi lozim. Shuning uchun intizomiy ta’sir choralarida adolat, xolislik, izchillik va insonparvarlik tamoyillariga rioya etish zarur.

Ayniqsa, psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan ishlashda ularning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Talabalarning emotsional sezgirligi, o‘z-o‘zini baholash darajasi, muloqotga kirishish xususiyatlari va muvaffaqiyatga erishish motivlari rag‘batlantirish hamda jazolash vositalarining ta’sirini o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli barcha talabalarga bir xil ta’sir vositasini qo‘llash har doim ham kutilgan natijani bermaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida rag‘batlantirishning samarali shakllaridan biri sifatida individual yutuqlarni e’tirof etish, ilmiy va ijodiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, mustaqil faoliyat natijalariga ijobiy munosabat bildirish, konstruktiv fikr-mulohaza berish hamda talabaning o‘z rivojlanish dinamikasini kuzatish imkoniyatini yaratishni ko‘rsatish mumkin.

Shuningdek, rag‘batlantirish va jazolash o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda talabaning o‘z faoliyatini mustaqil baholash qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. O‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va natijalar uchun mas’uliyatni his etish tashqi ta’sirlarga bo‘lgan ehtiyojni bosqichma-bosqich kamaytiradi. Natijada talaba o‘z faoliyatini tashqi nazorat yoki mukofot kutish asosida emas, balki anglangan maqsad va ichki ehtiyojlar asosida tashkil etishga o‘rganadi.

Shunday qilib, rag‘batlantirish va jazolashning psixologik samaradorligi ularning miqdori yoki kuchi bilan emas, balki shaxsning ehtiyojlari, motivlari, individual xususiyatlari va faoliyat mazmuniga muvofiqligi bilan belgilanadi. Ta’lim jarayonida rag‘batlantirish rivojlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ustuvor bo‘lishi, jazolash esa zarur hollarda cheklangan, adolatli va tarbiyaviy maqsadga yo‘naltirilgan shaklda qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Shaxs faoliyati samaradorligini ta’minlashda rag‘batlantirish va jazolash muhim psixologik determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular shaxsning xulq-atvori, motivatsion sohasi, emotsional holati va ijtimoiy munosabatlariga ta’sir ko‘rsatish orqali faoliyat natijalarining shakllanishida ishtirok etadi. Biroq ushbu ta’sirning samaradorligi shaxsning individual xususiyatlari va mavjud pedagogik-psixologik sharoitlarga bog‘liq.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rag‘batlantirish shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, ichki motivatsiyasini rivojlantirish, mustaqil faoliyatga intilishini kuchaytirish va ijobiy xulq-atvorni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Jazolash esa muayyan me’yorlarning buzilishiga nisbatan ta’sir chorasi bo‘lib, undan foydalanishda adolat, insonparvarlik, me’yoriylik va tarbiyaviy maqsadga muvofiqlik tamoyillariga rioya qilish talab etiladi.

Oliy ta’lim tizimida talabalarning o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish uchun rag‘batlantirish va jazolash mexanizmlarini ularning motivatsion, emotsional, individual-psixologik, kognitiv va ijtimoiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda tashkil etish zarur. Ayniqsa, psixologiya yo‘nalishidagi talabalar bilan ishlashda individual yondashuv, konstruktiv fikr-mulohaza, mustaqil faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, oliy ta’lim amaliyotida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

rag‘batlantirish jarayonida talabaning faqat yakuniy natijasini emas, balki uning intilishi, faolligi va shaxsiy rivojlanishini ham e’tirof etish;

rag‘batlantirish usullarini talabalarning individual-psixologik xususiyatlariga moslashtirish;

jazolashda shaxsning qadr-qimmatini saqlash, xatti-harakatni baholash va xatoni tuzatish imkoniyatini yaratish;

talabalarda ichki motivatsiya, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhit va o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish.

Umuman olganda, shaxs faoliyati samaradorligini ta’minlashda rag‘batlantirish va jazolashdan foydalanish tashqi ta’sir mexanizmlarini qo‘llash bilangina cheklanmasligi lozim. Ular shaxsning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, mustaqil faoliyatini rivojlantirish va ijtimoiy mas’uliyatini oshirishga xizmat qilishi zarur. Shu ma’noda, ta’lim jarayonida rag‘batlantirishga ustuvor ahamiyat berish, jazolashni esa pedagogik zarurat doirasida qo‘llash shaxs kamoloti va o‘quv faoliyati samaradorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Божович Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1968. – 464 с.
2. Выготский Л. С. Психология развития человека. – Москва: Смысл, 2005. – 1136 с.
3. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. – 712 с.
4. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 512 b.
5. Karimova V. M. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
6. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012.
7. Tolipov O‘. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
8. Yo‘ldoshev J. G‘., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
9. Nishonova Z. T. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
10. Davletshin M. G. Ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2005.
11. Thorndike E. L. Animal Intelligence: Experimental Studies. – New York: Macmillan, 1911.
12. Skinner B. F. The Behavior of Organisms: An Experimental Analysis. – New York: Appleton-Century, 1938.